XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-iyul VI-109-77-10-149-K/24 Bekobod shahar

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasida aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shoh ko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlarga) nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish fuqarolarning tashabbuslari, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning iltimosnomalariga asosan tumanlar, shaharlar hokimlari kiritgan taklifga ko‘ra Xalq deputatlari tumanlar, shaharlar kengashlari tomonidan, tarkibida tumanlar mavjud bo‘lgan shaharlarda esa tumanlar hokimlari kiritgan takliflarga ko‘ra Xalq deputatlari shaharlar kengashlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi Bekobod shahridagi 9 ta geografik obektlar (8 ta nomsiz qabristonlar va 1 ta nomsiz xiyobon)ni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining 2024-yil 4-aprel kunidagi 1/1-317-sonli xati asosidagi takliflari ko‘rib chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining ekspert komissiyasi tomonidan Bekobod shahridagi 9 ta geografik obektlar (8 ta nomsiz qabristonlar va 1 ta nomsiz xiyobon)ni nomlash yuzasidan 2024-yil 22-aprel kuni 03/08-3810-sonli ekspert xulosasi taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Bekobod shahar kengashi,

QAROR QILADI:

1. Geografik obektlarni nomlash va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi mas’ul kotibi U.Abdunazarovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining ekspert komissiyasi tomonidan 2024-yil 22-aprel kuni 03/08-3810-sonli ekspert xulosasi va “Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent viloyati komissiyasining 2024-yil 26-apreldagi 1/12-4-2056-son bayoni asosida ilova qilinayotgan 9 ta (8 ta qabriston va 1 ta istirohat bog‘i) obektlarning nomi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun talablariga muvofiq ekanligi to‘g‘risidagi taklifga rozilik bildirilganligi inobatga olinsin hamda ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Bekobod shahar Soliq inspeksiyasi, shahar Statistika bo‘limi, shahar davlat xizmatlari markazi, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, shahar Ichki ishlar bo‘limi, Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlari shahardagi ushbu qaror bilan nomlangan 8 ta qabristonlar va 1 ta istirohat bog‘larini nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsinlar.

4. Mazkur qaror “Bekobod yangiliklari” – “Novosti Bekabada” gazetalarida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi mas’ul kotibi U.Abdunazarov geografik obektlarga nom berilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni Geografik obektlar nomlarining davlat reestriga kiritish uchun o‘n kunlik muddatda Kadastr agentligiga taqdim etsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar kengashining sanoat, taransport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari A.Dadaboyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi BABAYEV NASRULLA NURILLAYEVICH

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-109-77-10-149-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bekobod shahrida joylashgan qabristonlarga va istirohat bog‘lariga nom berish

t/r	Geografik obektning turi	Geografik obektning bog‘lanishi	Geografik obektning amaldagi nomi	Ekspert komissiyasining xulosasi	Izoh
1	Qabriston	Birdamlik MFY, Me’mor ko‘chasi	Nomsiz 1-sonli qabriston	Baynalminal	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Madaniyat MFY, G‘ofur G‘ulom ko‘chasi	Nomsiz 2-sonli qabriston	Islomobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Jomiy MFY, Shaboda ko‘chasi	Nomsiz 3-sonli qabriston	Qardoshlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	Jomiy MFY, Shaboda ko‘chasi	Nomsiz 4-sonli qabriston	Balandtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Qabriston	Alisher Navoiy MFY, Me’mor ko‘chasi	Nomsiz 5-sonli qabriston	Rahmat nuri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Qabriston	Farhod MFY, Bobur ko‘chasi	Nomsiz 6-sonli qabriston	Qoramozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Qabriston	Navro‘z MFY Me’mor ko‘chasi	Nomsiz 7-sonli qabriston	Dorilbaqo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Qabriston	Farhod MFY, Oqibat ko‘chasi	Nomsiz 8-sonli qabriston	Mangulik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Istirohat bog‘i	Sementchi MFY, Sementchilar	Nomsiz Istrohat	“Sementchilar” istirohat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

		ko‘chasi	bog‘i	bog‘i	